“NUTQIY KOMPETENSIYALARNI OSHIRISH YO’LLARI”

Djo‘rayeva Jamila Toxirovna

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani XTB ga qarashli 42- umumta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o’quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Maqolada Nutq o’stirish bolalarning bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni ko’zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarini va tegishli lug’atni o’zlashtirish, nutqiy malaka va ko’nikma, kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni ochib berilgan .

Kalit so‘zi: kompetensiyal, kichik soha, Qo’l motorikalari, kordinasiya, Tormozlanish, individual.

Bizning hududda ham bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, ularni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta’lim tashkilotlarining moddiy texnika ba’zasini mustahkamlash ishlarini izchil davom ettirish maqsad qilib olindi.

“Ilk qadam” davlat o’quv dasturida “Nutq, muloqot, o’qish va yozish malakalari” sohasi kompetensiyalari quyidagi uchta sohaga bo’linadi:

1-kichik soha: 3-7 yoshli bolalarda nutq va til malakalari;

2-kichik soha: o’qish malakalari;

3-kichik soha: qo’l mayda motorikasini rivojlantirish.

Nutq o’stirish bolalarning bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni ko’zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarini va tegishli lug’atni o’zlashtirish, nutqiy malaka va ko’nikma, kompetensiyalarni shakllantirish jarayonidir.

Ma’lumki insonning ilm olishi, hayoti davomida yetarlicha bilim, ko’nikma, malakaga ega bo’lishi uchun nutqiy kompetensiyaning o’rni juda katta. Nutqida

kamchiligi bo’lgan yoki nutq malakalarini yetarlicha egallagan kishi o’z fikrini erkin va to’liq bayon eta olmasligi natijasida ko’plab noqulayliklarga duch kelishi tabiiy. Nutqiy kompetensiyalarni bolada ilk yoshdan boshlab shakllantirish va maktabgacha yoshga yetganda rivojlantirib, takomillashtirib boorish shaxs kamolotida muxim omil sanaladi. Qolaversa, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanganligi ularning maktabga sifatli tayyorlashni ta’minlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o’stirishning asosiy shakli – mashg’ulotdir.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning nutqini o’stirish masalasini pedagogic muammo sifatida o’rganib, ko’plab ilmiy - tadqiqotlar olib brogan olima, pedagogika fanlari doktori, professor O.Ushakova bolaning nutqini rivojlantirishda asosiy maqsad avvalo unga o’z ona tili adabiy til me’yorlarini ijodiy o’rganish, ulardan aniq vaziyatda unumli foydalana olish ko’nikmalarini shakllantirishda deb hisoblaydi.

O.Ushakova ma’lum yoshdagi tarbiyalanuvchilar nutqining o’ziga xos jihatlarini quyidagicha belgilangan:

- adabiy normalar va ona tili qoidalarini bilish, fikrlarini bayon etishda leksika va grammatikadan erkin foydalana olish, nutqning har qanday turini tuza olish;

- muloqot madaniyatining rivojlanganligi, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qila olish: eshitish, so’rash, javob berish, e’tiroz qilish, tushuntirish;

- Nutq madaniyati qoidalari va me’yorlarini bilish, vaziyatga ko’ra ulardan unumli foydalana olish.

S.Ushakovaning yuqoridagi fikriga qo’shimcha tarzda tayyorlov guruhi bolalari nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida yana ushbu jihatlar namoyon bo’ladi deb hisoblaymiz:

- ikkinchi tilni o’rganishga qiziqishning paydo bo’lishi;

- tengdoshi yoki suhbatdoshining nutqidagi kamchiliklarni aniqlash va tuzatish kiritishga intilish;

- o’z nutqida to’g’ri talaffuz, qulaygrammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanish;

- yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni o’rganish.

Bu borada pedagogning nutqi ham muhim omillardan biri hisoblanib uning nutq darajasi, madaniyatning shakllanganligi, nutq tarkibi va shakli qatorida eng muhimi bolalarning bu nutqni tushunish darajasidir.

“Ilk qadam” davlat o’quv dasturida “Nutq, muloqot, o’qish va yozish malakalari” sohasi kompetensiyalari quyidagi uchta kichik sohaga bo’lingan:

1 – kichik soha: 3 – 7 yoshli bolalarda nutq va til malakalari;

2 – kichik soha; o’qish malakasi;

3 – kichik soha; qo’l mayda motorikasini rivojlantirish.

Nutuq o’stirish bolalarning bilish qobiliyati rejali, aniq maqsadni ko’zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarini va tegishli lug’atni o’zlashtirish, nutqiy malaka va ko’nikma, kompetensiyalarni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o’stirishning asosiy shakli – mashg’ulotdir.

Bolalar har doim ham sog’lom bo’lib tug’ulmaydi. Ayrim bolalar kuchli, harakatchan, muskullari to’g’ri rivojlangan bo’ladi. Ammo ayrim bolalar turli sabablarga ko’ra nerv tolalarining shikastlanishi bilan dunyoga keladi va bu bolalarda nutq muskullarining rivojlanishi ortda qolishi holatlari kuzatiladi. Mayda qo’l motorikalari yirik motorikani rivojlanishini kechiktirishi ham mumkin. Bu bolalarning fikrlashi boshqa bolalarga nisbatan biroz kechikadi, nutq va ba’zi muskullar tormozlanishi ham mumkin.

Tormozlanish ikki xil ko’rinishda bo’ladi: tashqi va ichki.

Tashqi tormozlanishda genetic holat va markaziy asab tizimiga hech qanday holat va markaziy asab tizimiga hech qanday holat ta’siri bo’lmasada tormozlanadi.

Ichki yoki shartli tormozlanish individual xarakterga ega bo’lib, asab tizimini kuchli bosim o’tkazib ichki tormozlanishni shakllantirib boradi yani “qiziqish o’chib qoladi”. Asab tolalarining zo’riqishi yuzaga keladi.

Ushbu tashqi va ichki tormozlanish natijasida bolaning psixik jarayonlari me’yoridan past, darajada rivojlanadi. Mayda qo’l motorikasi meyoridan past bo’lsa nutq ham kech, ham nuqsonli rivojlanadi.

Demak bolaning nutq, tana muskullarini rivojlantirishda psixolog, logoped, pedagog va ota onalar hamkorlikda ish olib borishi zarur.

MTTda qo’l motorikasini rivojlantirish va mustahkamlash uchun quyidagi mashqlardan foydalanish mumkin.

1. Masalan, koptok bilan o’ynash, grender kubigi bilan ishlash, bolaningtafakkurini rivojlantirish mashqlar, yuzuvga tayyorlov va disfagiyaning oldini olish.
2. Logopedik massaj, o’z-o’zini massaj qilish.
3. Nafas mashqi va unli tovushlar bilan o’yinlar.
4. Artikulyatsion mashqlar.

Qo’l motorikalari yaxshi rivojlansa, nutq, ongli fikrlash, harakat kordinasiyalari ham rivojlana boshlaydi. Quyidagi mayda qo’l motorikasi hamda nutqqa javobgar

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim redagogikasi. T.: ‘Ilm ziyo’. 2006.

2. Amirova. G.A., Sulaymonov A.R., Djuraeva B .R. Maktabgacha ta’lim muassasalarda arrlikaцiya mashg’ulotlari. T., 2014. 608